

PEDAGOGIK MAHORAT

9
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

9-son (2025-yil, sentabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

	<i>Sultonmurodovna</i>	yo‘nalishlaridan biri sifatida	
	<i>URUNOVA Dilafrō‘z Muzafarovna</i>	Inklyuziv ta‘lim zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas qismi sifatida	162
	<i>QODIROVA Feruzaxon Usmanovna</i>	Inklyuziv sinflarda differensial yondashuv va individual ta‘lim strategiyalarining samaradorligi	167
	<i>SAFIYEVA Mohinur Akram qizi</i>	Inklyuziv ta‘lim jarayonida multimedia va interaktiv resurslardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	171
TA‘LIM MENEJMENTI			
	<i>BOYMURODOV Adham</i>	Turkiy davlatlar ta‘lim klasteri	175
	<i>BURIYEV Xolididdin Ja‘farovich</i>	Oliy ta‘lim muassasalarida axborotlashgan ta‘lim xizmati tizimini takomillashtirish omillari	179
	<i>KARIMOVA Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	Masofaviy ta‘limning rivojlanish istiqbollari: yetakchi mamlakatlar tajribasi va o‘zbekiston misolida ta‘limning yangi imkoniyatlari	183
	<i>KULMIROV Jonibek G‘ulomiddin o‘g‘li</i>	The evolution of esl/efl in uzbek universities since 2016: reforms, resources, and global partnerships	188
	<i>XAITOVA Yulduz Saitovna, MAHMUDOVA Sitara Jamoliddin qizi</i>	Maktabgacha ta‘lim tashkilotini rivojlantish dasturini ishlab chiqishda pedagogik jamoa faoliyatini loyihalashtirishning o‘rni	194
	<i>MANNANOVA Nargiza Xaydarovna</i>	Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarish funksiyalari	200
	<i>RAXIMOVA Maryam</i>	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini rivojlantirishning ilmiy asoslari	206
ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR			
	<i>BEKNIYOZOVA Zarina Rashid qizi</i>	Veterinariya ta‘limida clil texnologiyasining zamonaviy metodik imkoniyatlari	211
	<i>JOLDASOVA Gulchexra Kuralbay qizi</i>	Oliy ta‘lim muassasalarida masofaviy ta‘lim o‘qitish tizimini tahlil qilish va baholash	215
	<i>QAXOROV Sobir Xudoyberdiyevich</i>	Texnologiya fanini o‘qitishda steam ta‘lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari	220
	<i>RAYIMOVA Dilnavoz Dilmurodovna</i>	Tikuv buyumlarini loyihalashda avtomatlashtirilgan dasturlar (optitex, autocad va boshqalar) dan foydalanish	225
	<i>XAKIMOVA Dildora Mashrabjonovna</i>	Maktab ta‘limi muassasalariga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning metodologik yondashuvlari	229
RAQAMLASHTIRILGAN TA‘LIM			
	<i>ASADOVA Yulduz Ismatovna</i>	Methodology for checking the knowledge of students through artificial intelligence in independent learning in a modular-credit system	234
	<i>TOVBOYEV Islom Irisovich</i>	Talabalarning elektron didaktik kompetensiyasini shakllantirishda bulutli texnologiyalardan foydalanish	241
	<i>RASULOVA Zilola</i>	Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda	246

TA'LIM MENEJMENTI

TURKIY DAVLATLAR TA'LIM KLASTERI

Boymurodov Adham,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
a.boymurodov@cspu.uz

Ushbu maqolada turkiy davlatlar o'rtasida ta'lim klasterini shakllantirish tashabbusiga bag'ishlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi yagona ilmiy-ta'lim makoni yaratish, akademik hamkorlikni rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Taklif etilayotgan tashabbus doirasida umumiy ta'lim standartlarini ishlab chiqish, qo'shma o'quv dasturlari va malaka oshirish tizimlarini yo'lga qo'yish, shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish nazarda tutilgan. Turkiy xalqlarning tarixiy, madaniy va til jihatidan mushtarakligi ushbu klasterning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Klasterning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mintaqada ta'lim sifatini oshirish, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va turkiy xalqlar o'rtasida madaniy-ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda onlayn platformaning o'rni juda muhim hisoblanib, turkiy tillar, ingliz va boshqa tillarda interfeys hamda kontentni taqdim etib, til to'siqlarini kamaytiradi. Shuningdek raqamli kutubxona, darsliklar, ilmiy maqolalar va o'quv materiallari platforma orqali taqdim etiladi. Platforma ta'lim klasterining yagona texnik asosini yaratadi va barcha ishtirokchi davlatlar uchun qulay hamkorlik muhitini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, onlayn platform, klasterli analiz, integratsiya, virtual auditoriya, forum.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КЛАСТЕР ТУРЕСКИХ ГОСУДАРСТВ

Статья посвящена инициативе по формированию образовательного кластера тюркоязычных государств, основной целью которой является создание единого научно-образовательного пространства, развитие академического сотрудничества и подготовка конкурентоспособных специалистов. Предлагаемая инициатива предусматривает разработку единых образовательных стандартов, создание совместных учебных программ и систем повышения квалификации, а также эффективное использование цифровых образовательных технологий. Историческая, культурная и языковая общность тюркских народов закладывает прочную основу для этого кластера. Успешная реализация кластера будет способствовать повышению качества образования в регионе, созданию новых возможностей для молодежи и укреплению культурной и социальной интеграции между тюркскими народами. Роль онлайн-платформы в реализации этих процессов считается весьма важной, поскольку она обеспечивает интерфейс и контент на тюркском, английском и других языках, снижая языковые барьеры. На платформе также будут предоставляться электронная библиотека, учебники, научные статьи и учебные материалы. Платформа создает единую техническую базу для образовательного кластера и обеспечивает удобную среду для сотрудничества всех стран-участниц.

Ключевые слова: образовательный кластер, онлайн-платформа, кластерный анализ, интеграция, виртуальная аудитория, форум.

TURKISH STATES EDUCATION CLUSTER

This article is devoted to the initiative to form an educational cluster among Turkic states, the main goal of which is to create a single scientific and educational space, develop academic cooperation and train competitive specialists. The proposed initiative envisages the development of common educational standards, the establishment of joint curricula and advanced training systems, as well as the effective use of digital educational technologies. The historical, cultural and linguistic commonality of the Turkic peoples forms a solid foundation for this cluster. The successful implementation of the cluster will serve to improve the quality of education in the region, create new opportunities for young people and strengthen cultural and social integration between the Turkic peoples. The role of the online platform in the implementation of these processes is considered very important, providing an interface and content in Turkic, English and other

languages, reducing language barriers. A digital library, textbooks, scientific articles and educational materials will also be provided through the platform. The platform creates a single technical basis for the education cluster and provides a convenient cooperation environment for all participating countries.

Keywords: education cluster, online platform, cluster analysis, integration, virtual audience, forum.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, ayniqsa ta'lim sohasida integratsion jarayonlarni chuqurlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turkiy davlatlar o'rtasida ta'lim klasterini shakllantirish tashabbusi strategik ahamiyatga ega bo'lib, u hamkor davlatlar o'rtasida yagona ta'lim makonini shakllantirish, ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish va innovatsion taraqqiyotga xizmat qiluvchi akademik hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

M.Porterning klaster nazariyasi keyingi o'n-o'n besh yil moboynida ko'plab sohalar qatorida ta'lim sohasiga ham kirib keldi. Bu borada rus olimlarining hissasini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Ularning tadqiqotlarida ta'lim klasterining mazmun-mohiyati, qo'llanish sohaları xarakterli xususiyatlari o'z ifodasini topgan [1].

Klasterlarning paydo bo'lishi yuzaga keladigan turli darajadagi - global, milliy va mintaqaviy muammolarning bu borada yechimlaridan biridir. Ta'lim klasterini ilmiy adabiyotlardagi nazariy tahlilida E.I.Chuchkalova va O.G.Mosunovanning ta'rifini qabul qilish mantiqiy asosga ega. Ushbu ta'rif quyidagicha: “bir hududda joylashgan ta'lim muassasalari majmui, gorizonta va vertika ravishda bog'langan, qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan tadqiqot tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, davlat organlari, individual ishtirokchilarning yagona maqsadlari asosida umumiy natijaga erishish uchun ta'lim sohasida harakat qilishidir [2].

Innovatsion klasterlarning ta'lim komponenti yangi bilimlarni tezroq va samaraliroq tarqatish, O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida o'zaro hamkorlikning afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi. Innovatsion klasteri mintaq iqtisodiyotida innovatsion madaniyatni rag'batlantiradigan va mustahkamlaydigan muassasalar va firmalarning geografik guruhlanishi sifatida aniqlash mumkin [3].

Ta'lim klasteri deganda mintaq va munitsipalitetlarning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirishi, yosh avlodni rivojlantirish manfaatlarini ko'zlab, o'quv jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim tashkilotlari tarmog'ining tizimi tushuniladi [4].

Turkiy davlatlar o'zaro tarixiy, madaniy va til jihatidan mushtarak bo'lib, ularning hamkorlik salohiyati katta imkoniyatlarga ega. O'tmishda Ipak yo'li orqali shakllangan ilmiy-ma'rifiy almashinuv bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin. Shu bois ta'lim klasteri onlayn platformasi nafaqat akademik hamkorlikni mustahkamlash, balki turkiy xalqlarni yagona ilmiy-ta'lim makonida birlashtirish, yoshlar mobilitetini kengaytirish va sifatli bilimlar almashuvini yo'lga qo'yishda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur tashabbus turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida ilgari surilayotgan mintaqaviy integratsiya siyosatining tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimida innovatsion transformatsiyani amalga oshirishni nazarda tutadi. Onlayn platforma orqali qo'shma o'quv dasturlari, ilmiy tadqiqot loyihalari, masofaviy kurslar va qo'shma diplom dasturlarini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, klasterning huquqiy, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish ham uning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Turkiy davlatlar o'rtasidagi ta'lim hamkorligining asosiy nuqtasi bu umumiy til asosidagi aloqa va tushunishdir.

Til – bu odamlar o'rtasida fikr almashish, his-tuyg'ularni ifoda etish, bilim va tajribalarni avloddan-avlodga yetkazish vositasidir. Insoniyat tarixida tilning ahamiyati beqiyos bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, madaniyat rivoji va ilm-fan yutuqlarining asosi hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda global muammolar (iqlim, xavfsizlik, texnologiya) turkiy davlatlarning birgalikdagi harakatini talab qiladi. Mazkur hujjatda ta'lim klasterining asosiy maqsad va vazifalari, uni tashkil etish mexanizmlari, ishtirokchi tomonlarning roli hamda kutilayotgan natijalar haqida batafsil tahlil qilinadi.

“Turkiy tilli davlatlar o'rtasida uzviy hamkorlik, ta'lim sifatini yuksaltirish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish orqali yagona ilmiy-ta'lim makonini shakllantirish, yosh avlodni raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, umumiy tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalangan mutaxassislar etib tayyorlash”.

Turkiy davlatlar o'rtasida yagona ta'lim klasterini shakllantirish orqali umumiy tarixiy, madaniy va til asoslaridan kelib chiqib, bilim almashinuvi, davlatlar o'rtasida ta'lim ko'magini tashkil etish, ilmiy hamkorlik, o'quv dasturlarining uyg'unlashtirilishi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yaratish.

Ushbu klaster ta’lim sifatini oshirish, ilm-fan va texnologiya sohalarida integratsiyani kuchaytirish, shuningdek, turkiy xalqlar o’rtasidagi do’stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’lim klasteri a’zolari sifatida asosiy suveren va mustaqil turkiy davlatlar Turkiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Qozog’iston Respublikasi, O’zbekiston Respublikasi, Turkmaniston, Qirg’iz Respublikalari hisoblanadi.

Turkiy davlatlar o’rtasida ta’lim klasteri ishchi guruhini tashkil etish – bu davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishga, ta’lim sifatini oshirishga va o’zaro tajriba almashuvini yo’lga qo’yishga xizmat qiladigan muhim tashabbusdir. Quyida ushbu ishchi guruhni tashkil etish jarayoni va uning asosiy yo’nalishlari haqida takliflar keltirilgan:

Birinchi vazifa sifatida ishchi guruhni tashkil etish bosqichlari:

Tashabbuskor davlatni belgilash: Guruh tashkilotini boshlovchi va boshqaruvni muvofiqlashtiruvchi davlatni tanlash.

A’zo davlatlar vakillarini aniqlash: Har bir davlatdan ta’lim vazirligi, oliy o’quv yurtlari, ilmiy markazlar va IT sektori vakillaridan iborat delegatsiya tuzish.

Ustav va reglament ishlab chiqish: Guruh faoliyatining asosiy tamoyillari, maqsadlari, majburiyatlari va ish tartibini belgilash.

Yiliga bir necha marotaba yig’ilishlar tashkil qilish: Navbatma-navbat a’zo davlatlarda forumlar, konferensiyalar, ishchi yig’ilishlar o’tkazish.

Ishchi guruhning asosiy yo’nalishlari quyidagilar:

Ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish: Umumiy yoki moslashtirilgan o’quv rejalari yaratish (masalan, turkiy tillar, tarix, madaniyat, IT va STEM fanlari).

Darslik va raqamli resurslar almashuvi: O’quv adabiyotlarini o’zaro tarjima qilish va ulardan umumiy foydalanish.

O’qituvchi va talabalar almashuvi: Stajirovkalar, qisqa muddatli o’quv dasturlari orqali mobilitetni rivojlantirish.

Ilmiy-tadqiqot hamkorligi: Turkiy dunyo taraqqiyotiga qaratilgan qo’shma ilmiy loyihalarni moliyalashtirish.

Masofaviy ta’lim va texnologiyalar integratsiyasi: Platformalar, LMS tizimlar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim echimlarini baham ko’rish.

Demak, turkiy davlatlar o’rtasida ta’lim klasteri onlayn platformasini tashkil etish tashabbusi – ilm-fan va ta’lim sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish, raqamli ta’lim resurslarini birlashtirish va yangi avlodni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashning muhim garovi sifatida qaraladi.

Turkiy davlatlar o’rtasida ta’lim klasterini shakllantirishda onlayn platforma asosiy tayanch mexanizmlardan biri hisoblanadi. Yagona raqamli ta’lim makonini yaratish orqali turkiy davlatlarning o’quv dasturlari, elektron resurslari va darsliklarini yagona tizimda jamlash, o’qituvchi va talabalarga umumiy portal orqali kirish imkoniyatlarni taqdim etadi. Platformada yaratilgan masofaviy ta’lim va mobilitet tizimida talabalar o’z mamlakatidan chiqmagan holda boshqa turkiy davlat universitetlari kurslarida qatnasha oladi. Bu orqali onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va vebinarlarda bilim olish imkoniyatlari kengayadi. A’zo davlatlarda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar o’rtasida qo’shma ilmiy-tadqiqot faoliyati shakllanib platforma orqali hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshirishi mumkin. Tadqiqotchilar ilmiy maqolalar, ma’lumotlar bazasi va grant loyihalarini baham ko’rish osonlashadi.

So’nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda ta’lim klasterlari, raqamli platformalar va transmilliy hamkorlik bo’yicha tadqiqotlar keng yoyildi. Xalqaro tajribalar shuni ko’rsatadiki, Yevropa Ittifoqi doirasida Erasmus+, AQShda onlayn universitet tarmoqlari va Osiyo mamlakatlarida mintaqaviy ta’lim dasturlari o’z samarasini ko’rsatmoqda. Ushbu tajribalar turkiy davlatlar uchun ham mintaqaviy ta’lim klasteri yaratishda muhim metodik asos bo’lib xizmat qiladi.

Turkiy davlatlar ta’lim klasteri loyihasini xalqaro tajriba bilan solishtirganda, ayrim farqlar ko’zga tashlanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqidagi ta’lim integratsiyasi institutsional darajada mustahkamlangan bo’lsa, turkiy davlatlar hali bunday darajaga yetmagan. Biroq, umumiy til va madaniyat klasterini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar asosida yaratiladigan onlayn platforma klasterining barqarorligini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida ko’rishimiz mumkin.

Shuningdek, talabalar va o’qituvchilar almashuvi, qo’shma ilmiy tadqiqotlar, innovatsion startaplarni qo’llab-quvvatlash kabi yo’nalishlar ham loyihaaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tashabbus orqali turkiy davlatlar o’rtasida ta’lim sohasidagi integratsiya kuchayadi, raqamli ta’lim infratuzilmasi rivojlanadi, o’qituvchilar va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, yangi avlodda umumturkiy qadriyatlariga asoslangan bilim va ko’nikmalar shakllanadi.

Turkiy davlatlar oʻrtasida taʼlim klasterini tuzish loyihasi – bu juda dolzarb va istiqbolli tashabbus. Bu loyiha bir necha jihatdan katta ahamiyatga ega:

1. Madaniy va tarixiy yaqinlik asosida integratsiya:

Turkiy xalqlar oʻzaro til, madaniyat va tarixiy ildizlar bilan bogʻlangan. Taʼlim klasteri bu umumiyliklarni mustahkamlash va yangi avlodga oʻrgatish uchun qulay imkon yaratadi.

2. Akademik hamkorlik va ilmiy tadqiqotlar:

Universitetlar, ilmiy markazlar va oʻqituvchilar oʻrtasidagi hamkorlik ortadi. Ilmiy loyihalar, professor-oʻqituvchilar almashinuvi, qoʻshma konferensiyalar – bularning barchasi sifatli taʼlim uchun zamin yaratadi.

3. Talabalar mobiliteti:

Klaster doirasida talabalar turli davlatlarda taʼlim olish imkoniga ega boʻladi. Bu esa ularning tajribasini boyitadi va turli taʼlim tizimlarining yaxshi jihatlarini oʻzlashtirishga yordam beradi.

4. Iqtisodiy va siyosiy taʼsir:

Yaxshi taʼlim – barqaror rivojlanish kaliti. Turkiy davlatlar oʻz salohiyatini birlashtirsa, mintaqaviy kuch sifatida global miqyosda ham oʻz taʼsirini kuchaytiradi.

5. Texnologik va raqamli rivojlanish:

Taʼlim klasteri doirasida raqamli platformalar, onlayn kurslar va sunʼiy intellekt asosidagi vositalar ishlab chiqilishi ham mumkin – bu zamonaviy taʼlimga muhim hissa qoʻshadi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy davlatlar oʻrtasida taʼlim klasteri yaratish tashabbusi mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik va innovatsion rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola natijalariga koʻra, klasterni samarali amalga oshirish taʼlim dasturlarini uygʻunlashtirish, onlayn platformalarni rivojlantirish, qoʻshma diplom dasturlarini yoʻlga qoʻyish, moliyaviy mexanizmlarni aniq belgilash va ilmiy-tadqiqot grantlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ivanovna Ya.E. Obrazovatelnyy klaster kak resurs innovatsionnogo razvitiya regiona/ Sankt-peterburgskiy obrazovatelnyy vestnik. 2017. –9 s.
2. Ruseskaya M.N., Bartosh D.K. Klasterный podxod v organizatsii obrazovatelnykh protsessov sistemy nepreryvnogo professionalnogo obrazovaniya. Pedagogika i psixologiya obrazovaniya. № 2. 2019. – 106 s.
3. B.Usmanov. Innovatsionnyy nauchno-obrazovatelnyy klaster v sfere IKT/ Proceedings of the International Scientific Conference. Volume V, May 24th - 25th, 2019. 550-562.
4. A.Boymurodov. Pedagogik taʼlim innovation klasterida onlayn tizimidan foydalanish Oʻzbekiston milliy universiteti xabarлари, 2020, [1/2]. 72-74 b.